

## AYOLLAR YUBKALARI HAQIDA MA'LUMOT

*Raxmonova Gulchexra Kaxramonovna**Andijon viloyati Xo'jaobod kasb- hunar maktabi, tikuvchilik yo'nalishi ishlab chiqarish talimi ustasi.*

Yubka mustaqil kiyim sifatida yoki ayollar va qizlar kiyimining bir qismi bo'lishi mumkin. Hozirgi zamonaviy Yubkalarning fasonlari turli tuman. Yubkalarni bir chokli, ikki chokli va ko'p chokli qilib tikiladi. Ikki chokli yubkaning asos chizmasidan rurli bichimlardagi yubkalarning fasonini yaratса bo'ladi. Yubkalar mavsumga, istak va hohishga qarab tanlanadi. Yubkalar belli kiyimlar turkumiga kiradi. Yubkalar bichimiga ko'ra: to'g'ri bichimli, etagiga kengaygan bo'lishi mumkin. To'g'ri bichimli Yubkalar o'z navbatida: to'g'ri bichim, etagiga toraygan, etagiga bir oz kengaygan, shakllariga ega bo'ladi. Bunday Yubkalar shaklini beldagi burmalar, gir aylangan tahlamalar, koketkali Yubkalar hisobiga hosil qilish mumkin. Etagiga kengaygan Yubkalarga: bo'laklı va quyosh, yarim quyosh Yubkalar kiradi. Yubkalarni bezak baxyaqator, tasma, tugmacha, kashtalar va hokazolar bilan bezash mumkin. Yubka taqilmasiga "molniya" tasma, ilgak, tugmalar bilan ishlov berish mumkin. Yubkalar kiyilish o'rni va mavsumga qarab turli materiallardan tikiladi. Qish va bahot-kuz mavsumida kiyiladigan Yubkalar uchun jun va yarim jun gazlamalar va trikotaj materiallar, suniy tolali materiallar tanlanadi. Bu materiallar issiq tutadigan, gigroskopikligi yuqori, qayishqoq va shaklni yaxshi saqlaydigan bo'lishi kerak. Yozgi Yubkalar uchun yengil gazlamalar - ip gazlama, tabiiy va suniy shoyilar, shtapel, poplin, trikotaj kabi materiallar tanlanadi. Yubkalar vazifasiga ko'ra kundalik, bayramda kiyiladigan bo'ladi. Kimga mo'ljallanganligiga qarab: yoshlar, o'rtalari yoshlar, kattalar Yubkalariiga bo'linadi. Yubka konstruksiyasini chizishda avval bichimi tanlanadi, so'ng shahsiy figura to'laligi hissobga olinib zamonaviy moda yo'nalishiga mos model aniqlanadi. To'g'ri Yubka va uning variantlari ixcham bo'ksali ayollar figurasini kelishgan qilib ko'rsatsdi. Etak qismi toraytirilgan Yubka bashang kiyimlarda ko'proq uchraydi. Bunday Yubkalar qattiqroq gazlamadan tikiladi. Yubkani modellashtirishda tikish uchun tanlangan gazlama hossalarini va figuraning to'laligini ham hissobga olish zarur. Yubka va mayin gazlamalardan etagi kengaytirilgan Yubkalar, cho'ziluvchan gazlamadan torroq Yubka tikish ma'qulroqdir.

**To'g'ri bichimli yubka chizmasi**


Turli fasondagi Yubkalarning loyixasini yaratish uchun ikki chokli to'g'ri bichimli Yubka loyixasining asosi ishlatiladi. Bu Yubkani loyixalash uchun gavdadan olingan kuyidagi ulchovlар kerak buladi.

$$\text{BIYAA} = 38 \text{ sm} \quad \text{KBI} = 1 \text{ sm} \quad \text{BkYAA}$$

$$= 53 \text{ sm} \quad \text{KBk} = 2 \text{ sm}$$

YUU = 72 sm

OrBU = 42 sm



### **Yubkaning to'r qismi**

Qog'ozning chap tomon burchagiga Bl nuqta qo'yilib, undan pastga vertikal chiziq o'tkaziladi.

1. BlE = YUU = 72 sm (Yubka uzunligi).
2. BlBk = OrBU:2-1 = 42:2-1 = 20 sm (bo`ksagacha bo`lgan oralik).
3. Bl, Bk, E nuqtalaridan gorizontallar o'tkaziladi.
4. BkBk<sub>1</sub> = BkYAA+<sup>^</sup>Bk = 53+2 = 55 sm (Yubkaning bo`ksa chizigidagi kengligi)
5. Bk<sub>1</sub>-nuqtasidan vertikal o'tkaziladi; Bl<sub>1</sub>, E<sub>1</sub>, Bk<sub>1</sub> nuqtalar belgilanadi.
6. BkBk<sub>2</sub> = (BkYAA+<sup>^</sup>Bk):2-1 = (53+2):2-1 = 26,5 sm (Yon chokining urni).
7. Bk<sub>2</sub> nuqtadan yuqoriga va pastga vertikal o'tkaziladi, vertikalning bel va etak chiziqlari bilan kesishgan nuqtalari Bl<sub>2</sub>, E<sub>2</sub> bilan belgilanadi.

### **Yubkaning old va ort bo'laklari**

8. BkBk<sub>3</sub> = 0,4 BkBk<sub>1</sub> = 0,4x26,5 = 10,6 sm (Orqa bo'lak vitochkasining o'rni).
9. Bk<sub>3</sub> nuqtadan yuqoriga vertikal o'tkaziladi va bel chizig'i bilan kesishgan joyga Bl<sub>3</sub> nuqta qo'yiladi.
10. BkBk<sub>4</sub> = 0,4 BkBk<sub>2</sub> = 0,4x28,5 = 11,4 sm (Old vitochkaning urni).
11. Bk<sub>4</sub> nuqtadan vertical o'tkaziladi va bel chizig'i bilan kesishgan joyga Bl<sub>4</sub> nuqta qo'yiladi.
12. Summa V = (BkYAA+<sup>^</sup>Bk)-(BlYAA+<sup>^</sup>Bl) = (53+2)-(38+1) = 16 sm

(vitochkalarning umumiy qiymati).

13. Vitochkalarning taqsimlanishi:

- a)  $B_{l_5}B_{l_6} = 0,5 \times \text{summa } V = 8 \text{ sm}$  (Yon tomon vitochkasi);
- b)  $B_{l_7}B_{l_8} = 0,3 \times \text{summa } V = 4,8 \text{ sm}$  (orqa bo`lak vitochkasi);
- v)  $B_{l_9}B_{l_{10}} = 0,2 \times \text{summa } V = 3,2 \text{ sm}$  (old bo`lak vitochkasi).

Bu qiymatlar yarmini vitochkalarning o`rta chizig`idan bir tomonga, qolgan yarmini ikkinchi tomonga o`lchab qo`yiladi.

14. Beldagi nuqtalar ort bo`lak va old bo`lak vitochkalarining pastki uchlari bilan to‘g‘ri chiziqlar orqali birlashtiriladi.

15.  $B_{l_5}B_{l_{51}} = B_{l_6}B_{l_{61}} = 0,5-1 \text{ sm}$  (bel chizig`i).

16.  $B_{l_{51}}$  nuqta  $B_l$  nuqta bilan,  $B_{l_{61}}$  nuqtalar  $B_{l_1}$  nuqtalar bilan birlashtiriladi, bel vitochkalari shu chiziqqacha davom ettiriladi.

### **Yubkani texnik modellash**

Zamonaviy yubkalarning shakli juda turli-tuman. Ularni bir necha guruxga ajratish mumkin. Bular dan eng xarakterlisi: to‘g‘ri yubkalar, etak tomoni kengaytirilgan yubkalar, etak tomoni toraygan yubkalar. Shu yubka turlarining xar qaysisi birmuncha fason variantlaridan iborat bo’lishi mumkin.

Tug`ri yubkalarining shakli juda turli. Ularni bir necha guruxga ajratish mumkin. Bular dan eng xarakterlisi: to‘g‘ri yubkalar, etak tomoni kengaytirilgan yubkalar, etak tomoni toraygan yubkalar. Shu yubka turlarining xar qaysisi birmuncha fason variantlaridan iborat bo’lishi mumkin.

Odatda to‘g‘ri yubka va uning turli variantlari gavda tuzilishi kelishgan baland bo`yli ayollarga yoki kaddi-komati kelishgan bo`ksasi tor ayollarga tavsiya etiladi.

Etak tomoni kengaytirilgan yubkalar turli vertikal bo`laklarga bo`linishi bilan (turt bo`lakli, olti bo`lakli va sakkiz buo`akli, gode, quyosh va boshkalar) xarakterlanadi. Bunday yubkalar gorizontal bo`laklarga bo`linishi xam mumkin. Etak tomoni kengaytirilgan yubkalar beli ingichka gavdada juda yaxshi turadi.

Etak tomoni toraytirilgan «bochkasimon» yubkalarning bel chizig`i bo`ylab vitochka o`rniga burma qilingan bo`ladi.

Yubkalarning bunday guruxlarga bo`linishi shartli bo`lib, ular xamma turlarni qamrab ololmaydi. Yubkalarning deyarli xamma shakli taxlamalar, choclar joylanishi, qo`yma bo`laklar, beykalar, ko`yma aylana burmalar va boshqalar qandayligiga qarab o`zgarishi mumkin.

Xamma bichimdagи yubkalarning, ularning turlari va variantlarining loyixasi to‘g‘ri yubka loyixasi asosining bazasida texnik modellash usuli bilan ishlab chiqiladi.

Yubka ko`ylakning bir qismi bo`lsa, uning loyixasini ishlab chiqishda quyidagi shartlarni bajarish kerak: Yubka bilan ko`ylak ko`krak qismining bel chizig`i bo`ylab uzunligi bir xil bo`lishi kerak, vitochkalar yubkada va ko`ylak ko`krak qismida bir xil

joyda bo`lishi kerak: Yubkaning yon qirqimlarini ko`ylak ko`krak qismining yon qirqimlariga to‘g‘ri keltiriladi.

Choklarda kesiklar va taxlamali yubkalar. Yon chok, ung va orqa bo`lak, choklarida kesikli yubkalarni bajarish eng oson Buning uchun kesiklar rejalashtirilgan kesmalar yubka pastidan kesik uzunligi darajasigacha kengligiga 6-7 sm qo’shiladi (25-30 sm). Kesikka ko’ymning ustki kesilishi  $45^{\circ}$  burchak ostida qiya chiziq bilan bajariladi, keyin tayyor xolida uni shu yo’nalishga mos baxyaqator bilan mustaxkamlanadi.

### Choklarda kesiklar va taxlamali yubkalar

Old va orqa bo`laklar choklari yoki yon chokli qarama-qarshi taxlama yoki taxlamalar guruxi bilan bezash mumkin. Qarama-qarshi taxlama uchun kesiklarga taxlama kengligiga teng kattalikni ikkiga ko`paytirib ko’shiladi. Qarama-qarshi taxlama tikish chokini dekorativ tugmalar bilan bezash mumkin.

Kesikning xar bir tomonidan taxlamalar guruxini ularning kengligi va mikdoriga karab xisoblanadi. Yubka kesikida xar bir tomondan 3 tadan taxlama bo`lsa, ularning kengligi esa 4 sm ga teng bulsa, kesiklarga 20 sm ga teng kattalik ko’shiladi ( $4 \times 5$ ). Taxlamalar balandligi moda va individual didga boglik. Taxlamalarni ikkala tomonidan markaz tomonga tikmasdan kesikni ochiq qoldirish mumkin. Ularni vertikal baxyakator bilan yukoridan mustaxkamlanadi.

Gazlama kengligi bo`laklar kengligini taxlamalarga ko`ym bilan sigdirishga imkon bermasa, taxlamalar aloxida bichiladi va ular loyixalashtirilgan kesik pastki qismiga ulanadi.

Kesikli yubkalar. To’g‘ri ikki chokli yubkani old va orqa bo`laklar bo`ylab turli kesiklar, taxlanmalar guruxi bilan murakkablashtirish va shu bilan birga bezatish mumkin.

Uni modellashtirish uchun old bo`lak kengligi kenglining 3 va  $1/3$  bo`lib yon chokdan yubka pasti bo`ylab qo`yiladi. Bu nuqtadan yon chokka parallel vertikal o`tkaziladi. Vertikalda 25-30 sm ga teng kesik balandligi tashlanadi; Yon kesiki chizig`ida 30-35 sm ga teng balandlik tashlanadi (kesik balandligi yubka uzunligi, moda yo`nalishi va figuraning individual berilganliklariga bog`lik). Shunday qilib, xosil qilingan nuqtalar To’g‘ri chiziq bilan birlashtiriladi. Xuddi shunday kattaliklar Yubka orqa bo`lagining chap yon kesigi yonida xam qo`yiladi. Old va orqa bo`lak andazalari belgilangan chiziqlar bo`yicha kesiladi. Xosil qilingan katta bo`lmagan detallarda taxlamalar soni va kengligi xisoblanadi, taxlamalar chuqurligiga oralik qoldirib kesiladi va kog`ozga o`tkaziladi. Taxlamalarni belgilagach, ularni yon chok tomon yotqizilib quyiladi, dazmollanadi va bo`lakdagisi qiya kesikka mos ustki kesikka yotqizilgan tarzda tekislanadi.

Yubkani oldingi model tasviridan foydalanim ishlab chikish oson. Old kesik kengligi yubka old bo`lagining  $1/3$  kengligiga teng. Figuraning markaz bo`yicha

proporsiyalariga qarab balandlik 30-35 sm.

Hosil qilingan detalda taxlamalar xisoblanadi, ular markaziy ruparadagiga tomon yotqiziladi va ustki kesik old bo`lakdagи kesikka mos bezatiladi.

Kesikli yubkalar



Yubkada kesiklar variantlari konfiguratsiya bo`yicha turlicha bo`lishi mumkin. Kesik shakllari va ular joyi yubka asosi bo`laklarida xisoblanadi. Shu tarzda xosil




qilingan kesik detallarda taxlamalar chiziladi yoki kesiladi va burmalarga suriladi. Qo`yma qism uchun detallarga suriladi. Qo`yma qism uchun detal pastdan teng qismlarga kesib konik surilsa, taxlamali qo`yma qism

o`rnida kengaytirilgan detal xosil bo`ladi - aylana burma, u xam yubka pastida qadam erkinligini ta'minlaydi va ayni paytda uni bezaydi


Dabdabali yubkalar va yozgi dam olish uchun yubkalarda ikkita aylana burma loyihalashtirilishi mumkin. Buning uchun kesiluvchi kengaytirilgan detalda pastdan 4-5 sm masofaga parallel chiziq o`tkaziladi. Bu chiziq bo`yicha detal qisqartiriladi va ustki aylana burma xosil bo`ladi. Ikkala aylana burma yubka kesikiga ulanadi.

Yon tomondan taxlamali To'g'ri bir chokli yubka. To'g'ri ikkichokli yubka asosida yon tomonida taxlamali bir chokli yubkani bajarish oson Buning uchun qog`ozda yubka old bo`lagi asosiy andazasi to`lik chiziladi. Konturga bo`ksalar chizig`i solinadi. Pastdan chap vitochka oxirigacha bo`lak o`rtasiga parallel kesik chizigi o`tkaziladi. Detallar raqamlanadi

Gazlamada joylashtirishdan oldin gazlama taxlama chuqurligiga yetish-yetishmasligi aniqlanadi Gazlama kengligi va bo`ksalarning to`lik aylanashining erkin



Yon tomondan taxlamali yubka




yopishib turish uchun qo`yishmasi orasidagi farq aniqlanadi. Taxlama uchun 8-10 sm dan kam gazlama qolayotgan bulsa, bunday yubkani tikish tavsiya etilmaydi.

Xissoblash imkon bersa, gazlamada joylashtirish uchun chap milkdan avval taxlama chuqurligi yarmi plyus 1,0-1,5 sm (chok uchun) qo`yiladi va vertikal chiziq o`tkaziladi. Unga ko`zda tutilgan taxlama (katta) belgilangan chizig`i bo`yicha kesilgan andaza birinchi detali qo`yiladi, detal atrofi bo`r chiziq bilan chizib chiqiladi. Bo`ksalar chizig`ini qo`shib yon kesikka orqa bo`lak yoyilgan detali yotqiziladi. Ikkinchi detaldan bo`ksalar chizig`idan o`ngga taxlama chuqurligi yarmiga plyus 1,0-1,5 sm chok uchun qo`yim qo`yiladi.

Taxlamalar ochilmasligi uchun past chizig`i bo`yicha ular chuqurligini xar bir tomondan 1,5 sm ga kamaytiriladi. Xosil qilingan nuqtalar Bo`ksalar chizigi bilan chizg`ich ostiga birlashtiriladi va bel chizig`ida davom ettiriladi.

O`tuvchi qismli yubka yoki yubka «portfel». O`tish qismli Yubka andazasini ishlab chiqish uchun old bo`lak o`rtasida chizmada 15 sm ga teng o`tish kengligi qo`shiladi. Bichishda yubkaning old qismi xuddi shunday ikki qismdan iborat bo`lib, bu chuqur uo`ishni ta'minlashga imkon beradi.



O`tishli yubka variantlari: a - yuqori qismida patlarda taqilmali; b – o`tishning oval bajarilishi; v – pastda taxlamalar guruxli

Yubkaning yuqori qismida o`tish qismi tugmalar yoki 5 sm masofali patlar bilan mustaxkamlanishi mumkin. O`tishning pastki kesiki burchak yoki oval chiziq bilan belgilanishi mumkin. Modelni o`tishning pastki qismida taxlamalar guruxida kesik bilan murakkablashtirilishi mumkin. Kesikni qanday bajarilishini «kesikli yubkalar»ga qarang.

Chizmada kontur shtrix chiziq bilan o`tish pastining yechim variantlari belgilangan.

O`tishli yubka yon kesiklar to`g`ri yon pastga qarab biroz kengaytirilgan bo`lishi mumkin bo`lib, u kesikning vertikal xolatini ta'minlaydi. Buning uchun old va orqa bo`laklarning yon kesiklari pastida 2,5 sm ga kengaytiriladi. Kengaytirish Bo`ksalar chizigidan boshlanadi. Bunda yon kesikdan 2,5 sm masofada yubka pastki kesikini bajarishni oval bo`rtma chiziq bilan amalga oshiriladi va bo`laklar yon kesiklariga to`g`ri burchak ostida olib kelinadi. Ular ko`tarilishi 0,5 sm ga teng.

Kesik gorizontal chizigida taxlamali yubkalar. Endi ancha murakkabroq fasonlarni modellashtirishga o`tish mumkin. Bu gorizontal kesik chizig`ida joylashgan

cho`ntaklar va qopqoqli yubkalar. Cho`ntak chizig`idan qarama-qarshi taxlama loyihalashtirilgan.

Yubkaning old tomoni oyoqqa yopishib turadi.

Bunday nuqson qorni yassi bo'lib, dumbasi turtib chiqqan gavdaga kiyilgan yubkalarda bo'ladi. Buning sababi yubka old tomoninig o'lchami ortiq uzayib ketganida. Bu nuqsonni yubka old bo'lagini qirqib tashlab yo'qotiladi.

